

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3
MAXSUS SON

2026

IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
iyun, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИГАРА В ПЕСЧАНО-ГЛИНИСТЫХ ФОРМАХ
ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ СТАЛЬНЫХ ОТЛИВОК.....8

Эркинбоева Мафтуна Элдор кизи

XORIY TAJRIBASI ASOSIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI.....13

Ergashkulov Muyinjon, Musinova Mexrangiz

INNOVATSION MENEJMENT VA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH
MEXANIZMLARI.....18

Muradov Shohjahon Dilshod o'g'li, Ibragimova Saodat Abdumo'minovna

O'ZBEKISTONDA ENERGETIK SUBSIDİYALARNI ISLOH QILISHNING MAKROIQTISODIY
OQIBATLARI VA IJTIMOİY HIMOYA MODELLARI.....23

Xoshimov Pazliddin, Egamnazarova Gulnoza



O'ZBEKISTONDA ENERGETIK SUBSIDİYALARNI ISLOH QILISHNING MAKROIQTISODIY OQIBATLARI VA IJTIMOIIY HIMOYA MODELLARI

Xoshimov Pazliddin Zukurovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori

Egamnazarova Gulnoza Shuxrat qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston energetika sohasidagi subsidiyalar, ularning samaradorligi hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: subsidiya, energetik subsidiyalar, ijtimoiy norma, ijtimoiy himoya.

Аннотация. Основной целью данной статьи является анализ субсидий в энергетическом секторе Узбекистана, их эффективности, а также механизмов социальной защиты.

Ключевые слова: субсидия, энергетические субсидии, социальная норма, социальная защита.

Abstract. The main purpose of this article is to analyze energy subsidies in Uzbekistan, their effectiveness, and social protection mechanisms.

Keywords: subsidy, energy subsidies, social norm, social protection.

KIRISH

Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida qator iqtisodiy sohalar faoliyati bosqichma-bosqich liberallashtirilmoqda. Xususan, energetika sohasida ham so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, elektr energiyasi va tabiiy gaz tariflarining liberallashtirilishi mazkur sohadagi muhim islohotlardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, energetika sohasida bir qancha subsidiyalar va tarif mexanizmlari ishlab chiqildi. Energetik subsidiyalar deb energetika sohasida, jumladan, tabiiy gaz, elektr energiyasi yoki neft mahsulotlari bo'yicha davlat tomonidan xususiy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratiladigan iqtisodiy yoki moliyaviy yordamga aytiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Energetika sohasini liberallashtirish va tarifli iste'mol tizimini joriy etish so'nggi yillarda boshlangan bo'lib, ushbu mavzu mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xususan, M. Bennon o'zining *Greening the Grid by Opening Up: Energy Sector Reforms in Uzbekistan* nomli maqolasida (2026) O'zbekiston iqtisodiyoti uchun energetika sohasini liberallashtirish zarurati, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb etish hamda bozor mexanizmlarini rivojlantirish masalalarini tahlil qilgan. Shuningdek, amerikalik iqtisodchi Pol L. Joskovning 2003-yilda nashr etilgan *Electricity Sector Restructuring and Competition: Lessons Learned* nomli ilmiy ishida energetika sohasidagi islohotlar, raqobat muhitini shakllantirish va tarmoqni liberallashtirishning nazariy asoslari yoritilgan. Mazkur maqolaning asosiy manbalari sifatida sohaga oid qonunchilik hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan foydalanildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustda qabul qilingan «Elektr energetikasi to'g'risida»gi O'RQ-939-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi «Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi VM-204-son qarori mazkur tadqiqotning huquqiy asosini tashkil etdi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida energetika sohasini liberallashtirish, tarifli iste'mol tizimini joriy etish va energetik subsidiyalarni isloh qilishga oid mahalliy hamda xalqaro ilmiy adabiyotlar o'rganildi va nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mazkur sohaga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda vakolatli davlat organlarining rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini baholandi hamda tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat subsidiyalarining asosiy maqsadi xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hamda iste'molni rag'batlantirishdan iborat. Energetik subsidiyalar ta'sir etish usuli, maqsadi va yo'naltirilganligiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Jumladan:

Bevosita energetik subsidiyalar, ya'ni davlat tomonidan iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilarga grantlar, kompensatsiyalar yoki byudjet transfertlari ko'rinishida bevosita ajratiladigan moliyaviy yordam.

Bilvosita energetik subsidiyalar, ya'ni davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri moliyaviy mablag' ajratilmagan holda iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilarni ayrim soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod qilish.

Ijtimoiy subsidiyalar asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj va past daromadli aholi vakillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratiladi.

Ekologik subsidiyalar ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish va qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida ajratiladi. Masalan, shamol va quyosh elektr stansiyalari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ekologik subsidiyalar ajratiladi.

O'zbekiston ham energetika sohasini rivojlantirish, jahon standartlariga mos bozor mexanizmlarini shakllantirish hamda sohada ochiqlik va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda energetika sohasini liberallashtirish jarayonining asosiy bosqichi 2024–2026-yillarga to'g'ri keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustda qabul qilingan «Elektr energetikasi to'g'risida»gi Qonuni mazkur sohadagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu Qonunda energetika sohasini tartibga solishning quyidagi asosiy tamoyillari belgilangan:

- qonuniylik;
- bozorda sog'lom raqobatni rag'batlantirish;
- tenglik va hisobdorlik;
- ochiqlik va shaffoflik;
- sohada xavfsizlikni ta'minlashning ustuvorligi.

Energetika sohasida amalga oshirilgan muhim o'zgarishlardan biri sifatida elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli uchun differensial tariflar joriy etilganini qayd etish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldan kuchga kirgan «Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda ijtimoiy me'yor asosidagi differensial tarif tizimi joriy qilindi. Mazkur tarif tizimiga ko'ra elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli belgilangan ijtimoiy me'yor doirasida bazaviy tarif bo'yicha hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, iste'mol hajmi ortib borgan sari to'lanadigan tarif ham oshadi.

O'zbekistonda energetika resurslari narxлари va tariflari bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Masalan, 2017-yilda 1 m³ tabiiy gazning narxi 263 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ijtimoiy me'yor doirasidagi tarif 1 000 so'mga yetdi (1-rasm).



САНА	НАРХ
2017-йил 15-июлдан	263 сўм
2018-йил 16-ноябрдан	320 сўм
2019-йил 15-августдан	380 сўм
2024-йил 1-майдан	650 сўм (имтиёзли)
2025-йил 1-майдан	1000 сўм (имтиёзли)

Аҳоли учун 1 м³ газ нархлари ўзгариши

1-rasm. Aholi uchun 1 м³ gaz narxining oshish dinamikasi¹

Bu turdagi tarif tizimi, avvalo, energetika resurslarining samarasiz sarflanishini kamaytiradi hamda aholi va tadbirkorlar o'rtasida mas'uliyatli iste'mol madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarif tizimining ayrim kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar uchun asosiy ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli iste'mol hajmining ortishi natijasida yuqoriroq tariflarning qo'llanilishi ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mahsulot va xizmatlar narxining oshishi hamda aholi iste'molining qisqarishiga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun amaldagi tariflar muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois davlat tomonidan iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida turli subsidiyalar hamda davlat moliyaviy yordami mexanizmlari joriy etilgan. Xususan, yirik ishlab chiqaruvchilarga energetika resurslarini imtiyozli narxlarda yetkazib berish yoki ularga subsidiyalar ajratish, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun kompensatsiyalar to'lash nazarda tutilgan.

Energetika sohasini liberallashtirish qator makroiqtisodiy natijalarga olib keladi. Xususan, davlat byudjetiga tushadigan yuk kamayadi, chunki aholi energiya resurslari uchun o'z iste'moli hajmidan kelib chiqqan holda to'lovlarni amalga oshiradi. Natijada davlat tomonidan ajratiladigan umumiy subsidiyalar hajmi qisqaradi va byudjet mablag'larini ijtimoiy himoya qilish hamda boshqa ustuvor sohalarga samaraliroq yo'naltirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, sohaning investitsion jozibadorligi oshadi. Chunki bozor tamoyillariga asoslangan tariflar energetika kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, ularning daromadlarini ko'paytirib, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Iste'mol hajmiga qarab belgilangan tariflar energiya resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi. Bu esa yalpi energiya iste'molining qisqarishiga, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishning kengayishiga va umumiy iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Qisqa muddatda energiya narxlarining oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytirishi mumkin. Bu esa ayrim tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atining sekinlashishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Biroq uzoq muddatda bozor mexanizmlarining shakllanishi, resurslarning samarali qayta taqsimlanishi hamda yangi ishlab chiqaruvchilar va investorlarning sohaga kirib kelishi natijasida iqtisodiy samaradorlik oshadi.

Energetika sohasini liberallashtirish va tarifli iste'mol siyosati bandlik darajasiga ham qisqa va uzoq muddatlarda turlicha ta'sir ko'rsatadi. Xususan, qisqa muddatda energiyani ko'p talab qiluvchi tarmoqlarda xarajatlarning oshishi sababli ayrim ish o'rinlari qisqarishi mumkin. Biroq uzoq muddatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan kengroq foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy samaradorlikning oshishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin. Umuman olganda, energetika sohasini liberallashtirish va tarifli iste'mol tizimini joriy etish qisqa va uzoq muddatlarda makroiqtisodiyotga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Qisqa muddatda ayrim salbiy oqibatlar kuzatilishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, sohada o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar ham mavjud. Jumladan, energetika infratuzilmasini yanada rivojlantirish, chekka hududlarni energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash, aholi o'rtasida tarif siyosati hamda mas'uliyatli iste'mol madaniyati bo'yicha xabardorlik va savodxonlikni oshirish, shuningdek, ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini yuksaltirish kabi vazifalar dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda (2-rasm).

¹ Daryo.uz интернет нашри, <https://share.google/NK3r3xUacNk3ZuVRo>



2-rasm. Aholini elektr energiyasi bilan qamrab olish ko'rsatkichlari²

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda aholini energetika xizmatlari bilan qamrab olish darajasi izchil oshib bormoqda. Masalan, 2016-yilda respublika aholisini elektr energiyasi bilan ta'minlash hajmi 45,7 mlrd kVt-soatni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 71 mlrd kVt-soatga yetdi. Bu esa energetika sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, infratuzilmaning takomillashtirilishi hamda tarmoqning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning salbiy ta'sirini kamaytirish hamda islohotlarning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- aholi o'rtasida tarifli iste'mol tizimining afzalliklari va energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish zarurati yuzasidan targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- subsidiyalar va ijtimoiy yordamlarni kam ta'minlangan aholi qatlamlariga manzilli ravishda yo'naltirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish;
- energiya tejamkor va yuqori samarador texnologiyalarni joriy etish hamda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;
- raqamli va «aqlli» hisoblagichlarni bosqichma-bosqich keng joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda O'zbekistonda energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bozor iqtisodiyoti tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tish, energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda sohaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Tarifli iste'mol tizimining joriy etilishi energiya resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish va sohaga investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur islohotlar qisqa muddatda kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun qo'shimcha moliyaviy yukni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy himoya mexanizmlarini manzilli va samarali tashkil etish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda tarif siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi «Elektr energetikasi to'g'risida» O'RQ-939-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/7051573>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi «Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» VM-204-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6884060?ONDATE=17.04.2024>
3. Bennon M. *Greening the Grid by Opening Up: Energy Sector Reforms in Uzbekistan*. Stanford Center on Democracy, Development and the Rule of Law, Stanford University, 2026.
4. Joskow P. L. *Electricity Sector Restructuring and Competition: Lessons Learned*. Cuadernos de Economía (Latin American Journal of Economics), 2003, No. 121.
5. «Hududiy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati rasmiy sayti. <https://het.uz/oz/lists/category/19>
6. Daryo.uz internet nashri. <https://share.google/NK3r3xUacNk3ZuVRo>
7. Yuz.uz internet nashri. <https://share.google/U21reAEPYaJFFQ7MX>

2 Yuz.uz интернет нашри, <https://share.google/U21reAEPYaJFFQ7MX>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100